

BIR VAQTLI AVTOREGRESSIYA MODELLARI NOMA'LUM PARAMETRLARNI BAHOLASH USULLARI

Mirzayev Toxirjon Saloxetdinovich,
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Email: tsmirzayev@mail.ru,

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir vaqtli avtoregressiya modeli uchun parametrlarni baholashning yangi g'oyalari taklif etilgan. Taklif etilgan baholashlar, odatdagi an'anaviy eng kichik kvadratlar usulida olingan baholashlarga qaraganda oddiyroq limit taqsimotga ega.

Kalit so'zlar: Bir vaqtli avtoregressiya modeli, limit teorema, viner jarayoni, eng kichik kvadratlar usuli, normal taqsimot qonuni.

МОДЕЛИ ОДНОВРЕМЕННОЙ АВТОРЕГРЕССИИ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ НЕИЗВЕСТНЫХ ПАРАМЕТРОВ

Аннотация: В данной статье предлагаются новые идеи оценки параметров модели одновременной авторегрессии. Предложенные оценки имеют более простое предельное распределение, чем обычные традиционные оценки методом наименьших квадратов.

Ключевые слова: модель одновременной авторегрессии, предельная теорема, винеровский процесс, метод наименьших квадратов, нормальный закон распределения.

MODELS OF SIMULTANEOUS AUTO-REGRESSION METHOD FOR ESTIMATING UNKNOWN PARAMETERS

Abstract: This article proposes new ideas for estimating the parameters of a simultaneous autoregression model. The proposed estimators have a simpler marginal distribution than conventional least squares estimators.

Key words: simultaneous autoregression model, limit theorem, Wiener process, least squares method, normal distribution law.

Biz ushbu maqolada bir vaqtli avtoregressiya modelida noma'lum parametrlar uchun nostandart baholarning limit teoremlari bilan tanishib o'tamiz.

Bir vaqtli avtoregressiya modeli deb quyidagi

$$X_k^{(n)} = \begin{cases} \alpha(X_{k-1}^{(n)} + X_{k+1}^{(n)}) + \varepsilon_k, & k = 1, 2, \dots, n-1, \\ X_0^{(n)}; X_n^{(n)}, & \text{berilgan tasodifiy miqdor,} \end{cases} \quad (1)$$

modelga aytiladi (q. [1]), bunda α —noma'lum parametr, $\{\varepsilon_k, k = 1, 2, \dots, n-1\}$ —matematik kutilmasi nol dispersiyasi birga teng bo'lgan bog'liqsiz tasodifiy tasodifiy miqdorlar.

(1) model turg'un bo'ladi agar $|\alpha| < 1/2$, kritik bo'ladi agar $|\alpha| = 1/2$ va portlash tipiga mansub agar $|\alpha| > 1/2$ bo'lsa.

Yuqorida keltirilgan model uchun eng kichik kvadratlar usulida qurilgan baho ko'rinishi quyidagicha [1],[2]:

$$\tilde{\alpha}_n = \frac{\sum_{k=1}^{n-1} X_k^{(n)} (X_{k-1}^{(n)} + X_{k+1}^{(n)})}{\sum_{k=1}^{n-1} (X_{k-1}^{(n)} + X_{k+1}^{(n)})^2}.$$

Bu baho uchun limit taqsimotni topish uchun $X_k^{(n)}$ tasodifiy miqdorlarni $\varepsilon_1, \dots, \varepsilon_{n-1}$ miqdorlar orqali ifodalash lozim.

Teorema [1]. Agar $\alpha = \pm 1/2$, u holda

$$X_k^{(n)} = (\pm 1)^k \left(1 - \frac{k}{n}\right) X_0^{(n)} + (\pm 1)^k \frac{k}{n} X_n^{(n)} + 2 \left(1 - \frac{k}{n}\right) \sum_{l=1}^{k-1} (\pm 1)^{k+l} l \varepsilon_l + 2 \frac{k}{n} \sum_{l=k}^{n-1} (\pm 1)^{k+l} (n-l) \varepsilon_l. \quad (2)$$

Kritik tipda bir vaqtli avtoregressiya modeli uchun yuqoridagi bahoning limit taqsimoti uchun quyidagi limit teorema o'rinli.

Teorema [1]. Agar $\{\varepsilon_k, k \in N\}$ – tasodifiy miqdorlar $E\varepsilon_1 = 0$, $E(\varepsilon_1)^2 = 1$ va $E(\varepsilon_1)^8 < \infty$, bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar bo'lsa, u holda $\alpha = 1/2$ bo'lganda

$$n^2 (\tilde{\alpha}_n - \alpha) \Rightarrow \frac{\int_0^1 \chi_t dw_t}{2 \int_0^1 (\chi_t)^2 dt},$$

bu yerda $(w_t)_{t \in [0,1]}$ – standart viner jarayoni va

$$\chi_t = 2(1-t) \int_0^t s dw_s + 2t \int_t^1 (1-s) dw_s, \quad t \in [0,1].$$

Bulardan ko'rinadiki $\alpha = 1/2$ holda (1) modelda noma'lum parametr uchun eng kichik kvadratlar usulida qurilgan baho murakkab limit taqsimotga ega (q. [1], [2],[3]), va $\alpha = -1/2$ bo'lgan hol uchun esa bu teorema o'rinli emas.

Biz quyida kritik hollarda ya'ni $\alpha = 1/2$ va $\alpha = -1/2$, hollarda soddaroq strukturaga va limit taqsimotga ega bo'lgan nostandart baholar bilan tanishib o'tamiz. Navbatda $\alpha = 1/2$ va $\alpha = -1/2$, tiplar uchun nostandart baholarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

1-hol. $\alpha = 1/2$ bo'lganda (1) tenglamani k bo'yicha 1 dan $n-1$ gacha yig'idi tuzamiz

$$\sum_{k=1}^{n-1} X_k^{(n)} = \alpha \sum_{k=1}^{n-1} (X_{k-1}^{(n)} + X_{k+1}^{(n)}) + \sum_{k=1}^{n-1} \varepsilon_k$$

yoki qisqacha ko'rinishda

$$X_n = \alpha Y_n + Z_n. \quad (3)$$

Navbatda (3) tenglamada Z_n , miqdorni hisobga olmagan holda yechimini topamiz va quyidagi bahoga ega bo'lamiz

$$\alpha_n^* = X_n/Y_n.$$

Enda (3) dan foydalanib chegirmani topamiz

$$\alpha_n^* - \alpha = Z_n/Y_n. \quad (4)$$

2-hol. $\alpha = -1/2$ bo'lganda (1) tenglamani ikkala qismini $(-1)^k$ ga ko'paytirib so'ngra k bo'yicha l dan $n-l$ gacha yig'idi tuzamiz

$$\sum_{k=1}^{n-1} (-1)^k X_k^{(n)} = \alpha \sum_{k=1}^{n-1} (-1)^k (X_{k-1}^{(n)} + X_{k+1}^{(n)}) + \sum_{k=1}^{n-1} (-1)^k \varepsilon_k$$

yoki qisqacha ko'rinishda

$$\tilde{X}_n = \alpha \tilde{Y}_n + \tilde{Z}_n. \quad (5)$$

Navbatda (4) tenglamada \tilde{Z}_n , miqdorni hisobga olmagan holda yechimini topib nostandart bahoga va bu baho uchun quyidagi chegirmaga ega bo'lamiz

$$\tilde{\alpha}_n - \alpha = \tilde{Z}_n/\tilde{Y}_n. \quad (6)$$

Enda oddiy holda ya'ni $X_0^{(n)} = X_n^{(n)} = 0$ bo'lganda quyidagi limit teorema isboti bilan tanishib chiqamiz.

Teorema A. $\{\varepsilon_k, k = 1, 2, \dots, n-1\}$ – miqdorlar matematik kutilmasi nol va dispersiyasi birga teng bo'lgan bog'liqsiz bir hil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar bo'lib

1. Agar $\alpha = 1/2$ bo'lsa, u holda $n \rightarrow \infty$

$$\sigma n^2 (\alpha_n^* - \alpha) \Rightarrow \xi_1/\xi_2;$$

2. Agar $\alpha = -1/2$ bo'lsa, u holda $n \rightarrow \infty$

$$\sigma n^2 (\tilde{\alpha}_n - \alpha) \Rightarrow -\xi_1/\xi_2,$$

bunda $\sigma^2 = 2/15$, (ξ_1, ξ_1) – matematik kutilmasi nol va kovariasion

matrisasi $\begin{pmatrix} 1 & \sqrt{5/24} \\ \sqrt{5/24} & 1 \end{pmatrix}$ ga teng bo'lgan normal taqsimlangan vector.

Yuqoridagi teoreмага o'xshash usul bilan $\alpha(n) \rightarrow \pm \frac{1}{2}$, $n \rightarrow \infty$ bo'lgan hollarda ham nostandart baholar uchun asimptotik limit taqsimotlarini topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baran. S., Pap. G. Asymptotic inference for a one-dimensional simultaneous autoregressive model // *Metrika*, 2009. DOI 10.1007/s00184-009-0289-5.
2. Anderson T.V. On asymptotic distributions of estimates of parameters of stochastic difference Equations // *Ann. Math. Statist*, 1959. -V.30. -Pp. 676-687.
3. White, J.S. The limiting distribution of the serial correlation coefficient in the explosive case // *Ann. Math. Statist*, 1958. -V. 29. -Pp. 1188-1197.